

Kurbanov Ziyat Niyazovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori, iqtisodiyot fanlari doktori,
e-mail: ziyatkurbanov@mail.ru

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) o'tish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy buxgalteriya hisobini xalqaro talablarga moslashtirish zarurati, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning mohiyati hamda ularni tasniflash mezonlari yoritilgan. Shuningdek, MHXSni joriy etishning iqtisodiy ahamiyati, investitsion jozibadorlikni oshirishdagi o'rni va mavjud muammolar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisob, buxgalteriya hisobi, raqamli iqtisodiyot, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, standartlashtirish, investitsion jozibadorlik.

Kirish. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etish va amaliyotda xalqaro standartlarni qo'llash buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 282-son-qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro ilmiy asoslangan standartlarga moslashtirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini tug'dirmoqda.

Asosiy qism. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha iqtisodchilar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2025) 2025-yil 15-sentyabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 282-son-qarori Moliyaviy hisobotlarni tuzishda aniqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida yirik korxonalarining moliyaviy hisobotlari Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards (IFRS) asosida tuzishga o'tilgani, moliyaviy hisobning milliy tizimini xalqaro talablarga uyg'unlashtirishga erishilgani, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rilayotganligi ko'rsatib o'tilgan [1].

I.N.Ismanov (2017) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining mohiyatini quyidagicha ifodalagan: “MHXS korxonalar faoliyati to‘g‘risida moliyaviy axborotlarning manbai bo‘lgan va foydalanuvchilar uchun xizmat qiladigan moliyaviy hisobot tayyorlashga yo‘naltirilgan. Ushbu standartlar alohida olingan mamlakatning qonunchiligiga bog‘lanmagan va faoliyat turi, o‘lchami, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar barcha korxonalar hisobotini shakllantirish uchun yo‘naltirilgan” [Ismanov, 2].

X.Rizayevning (2022) qarashi, «O‘zbekistonda ayni vaqtda MHXS joriy etib borilishi bilan MHXS bo‘yicha hisobot va soliq tizimi o‘rtasida nizolar bo‘lishi aniq. Shu sababli MHXS bo‘yicha hisob yuritishga o‘tishda, moliyaviy hisobni yuritish uchun MHXS normalaridan foydalanish qoidalarini va ko‘pgina yo‘riqnomalarni chiqarish kerak bo‘ladi» [Rizayev, 3].

MHXSga o‘tishning ahamiyatini S.N.Tashnazarov (2021) quyidagicha izohlagan, «mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarining ixtiyoriylik asosida o‘z tashabbuslari bilan MHXSlari asosida moliyaviy hisobotga o‘tishlariga erishishimiz lozim. Korxonalar va tashkilotlar o‘zlari MHXSlariga o‘tishda naf olishlari, uning afzalliklarini his qilishlari lozim. MHXSlar orqali investitsiyaviy jozibadorligiga erishish yo‘li bilan korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa sifatida qaralishi lozim» [Tashnazarov, 4].

Ye.Nesterenkoni yozishicha (2025) “2023-yil iyun oyida IFRS Kengashi birinchi marta barqarorlik bilan bog‘liq ikkita yangi standartni chiqardi: IFRS S1 “Barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy ma’lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar” va IFRS S2 “Iqlim bilan bog‘liq ma’lumotlarni ochib berish”. Ular barqarorlik va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan xavf va imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish talablarini belgilaydi, ular korxonaning pul oqimiga, moliyalashtirishga kirishiga yoki kapital qiymatiga ta’sir qiladi” [Nesterenko, 5].

Ye.Zibarevaning (2025) fikricha, “IFRS S1 barqarorlik risklari va imkoniyatlarini va oshkor etilishi kerak bo‘lgan tegishli ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun IFRS S1 korxonalaridan korxonaga ta’sir qiluvchi barcha muhim barqarorlik risklari va imkoniyatlarini aniqlash va oshkor qilish uchun ikki bosqichli jarayonni bajarishni talab qiladi:

- birinchi qadam barqarorlik bilan bog‘liq risklarni va biznesga qisqa, o‘rta va uzoq muddatda ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. — ikkinchi qadam 1-qadamda belgilangan barqarorlik bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlar haqida qanday ma’lumotlarni oshkor qilish kerakligini aniqlashga yordam beradi” [Zibareva, 6].

Z.N.Kurbanovning (2025) fikricha, “Jahonda ro‘y berayotgan jadal globallashtirish jarayoniga mamlakatimiz iqtisodiyotini moslashuvini talab qiladi. Global investitsiya portfeliga ega xalqaro investorlar kompaniyalar tomonidan iqlim va boshqa ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalari bo‘yicha yuqori

sifatli, shaffof, ishonchli va qiyoslanuvchan hisobotlarni talab qilmoqdalar. Moliyaviy hisob tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari (IFRS Sustainability Standards)ni o‘rganib, mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishdir” [Kurbanov, 7].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2022-2026-yillarda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni¹

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	2022-yil 1-yanvar holatiga	2023-yil 1-yanvar holatiga	2024-yil 1-yanvar holatiga	2025-yil 1-yanvar holatiga	2026-yil 1-yanvar holatiga
Qo‘shma korxonalar	5 988	6 419	4 657	4 247	4 282
Xorijiy korxonalar	7 301	9 382	9 396	13 917	14 231
Jami:	13 289	15 801	14 053	18 164	18 513

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro talab va standartlarni joriy etish zaruriyati yuqorida keltirilgan iqtisodchilarning ilmiy ishlarida asoslab berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni o‘sib borayotganligi ham MHXSlarini amaliyotda qo‘llashni zaruriyat qilib qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda yildan yilga xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni oshib bormoqda (1-jadval).

2022-yil 1-yanvar holatiga bu korxonalar soni 13 289 bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga 18513 ta bo‘lib, ularning 4 282 tasi qo‘shma korxonalar bo‘lsa, 14 231 tasi xorijiy korxonalarni tashkil qilgan. Hozirgi vaqtda 4 282 tasi qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ularning ko‘pi “O‘zbekneftgaz” AJ tizimida shakllantirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakatda 295 ta neft-gaz koni bor. Shundan 118 tasi – 40 foiziga “O‘zbekneftgaz” (davlat) egalik qiladi. Qolgan 176 tasi qo‘shma korxonalar va xorijiy kompaniyalarga tegishli.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqorida keltirilgan xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar buxgalteriya hisobi tizimi amaliyotiga moliyaviy hisobotning xalqaro talab va standartlari joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 282-son-qarorida “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” tushunchasi kiritilgan bo‘lib, faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng

¹ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo'lish kabi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladi deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 27-dekabrda qaratilgan qarori bilan "Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo'yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 27-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3736] [8].

Yuqoridagi Nizomda "Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar"ga "Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar — faoliyat turi, aktivlari hamda yillik tushumi, dividend shaklidagi daromadlari miqdori yoki xodimlarining soni tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo'lish kabi mezonlarga javob beradigan tijorat tashkilotlari" deb ta'rif berilgan.

Nizomda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Qimmatli qog'ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (Publicly Traded Entity) tashkilotlar.

2. Tijorat banklari, mikromoliya banklari, mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari va kafolatlar berish tashkilotlari, to'lov tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlari.

3. Investitsiya fondlari.

4. Birjalar.

5. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz va undan ortiq bo'lgan hamda bir vaqtning o'zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida mazkur Mezonlarning 6-bandi "a" kichik bandiga muvofiq keladigan hamda mahsulot, tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik sof tushumi va dividend shaklidagi daromadlari birgalikda bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar.

6. Bir vaqtning o'zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida hisobot yili yakunlariga ko'ra:

a) aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq;

b) mahsulot, tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik sof tushumi bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq;

d) xodimlarining o'rtacha yillik soni besh yuz nafardan kam bo'lmagan tashkilotlar.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar tomonidan "MHXSning barqarorlik to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish standartlari" (IFRS Sustainability Disclosure Standards) 2027-yil 1-yanvardan boshlab qo'llaniladi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar o‘zining moliyaviy hisobotini hamda “MHXSning barqarorlik to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor etish standartlari” asosida tuzilgan hisobotini auditorlik xulosasi bilan birga o‘z veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida aksiyadorlarning yoki tashkilotning boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin, ammo hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunidan kechiktirmay e‘lon qilish ko‘zda tutilgan.

Xulosa va takliflar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini mamlakatimizda tan olish va amaliyotga joriy etish borasida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida, ularning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” toifasiga kiradigan tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirish lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotda qo‘llaydigan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” toifasiga kiradigan tashkilotlar uchun moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish yoki mavjudlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 282-son-qarori.

2. Ismanov I.N. Buxgalteriya hisobi tizimining moliyaviy hisobotlarning xalkaro standartlariga transformatsiyasining zaruriyati. “Iqtisod va moliya” jurnali №3, 2017.

3. Rizayev X. O‘zbekiston Respublikasida 12-“Foyda soliqlari” MHXSini qo‘llash jarayonidagi muammo va yechimlar. JURNAL.Ekonomika i sotsium.11 (102).-2-2022.

4. Tashnazarov S.N. Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. “Ekonomika i sotsium” №5 (84) 2021.

5. Нестеренко Е. МСФО (ИФРС) 2025: ключевые изменения и нюансы перехода. <https://finacademy.net/materials/article/neobhodimost-perehoda-na-msfo>. 8.04.2025.

6. Зибарева Е. Новые стандарты МСФО по устойчивому развитию. <https://траининг.тедо.ру/блог/эсг-репортинг/>. 8.04.2025.

7. Kurbanov Z.N. Moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, aprel. www.sci-p.uz. 312-318.

8. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 27-dekabrda qarori bilan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi

to‘g‘risidagi nizam”.